

BUXORODA ISHLAB CHIQRILGAN MATOLAR

Annotatsiya. Maqolada Buxoro vohasida tayyorlangan matolar va ularning turlari xususida so'z yuritiladi. Shu bilan birga maqolada matolarning etnik tarixidagi mahalliylik an'ana, ijtimoiy munosabat va undagi ayrim elementlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mato, zandanachi, fransuz velluri, mahalliy olabaxmal, beqasam.

ТКАНИ, ПРОИЗВЕДЕННЫЕ В БУХАРЕ

Аннотация. В статье рассматриваются ткани Бухарского оазиса и их виды. В то же время в статье анализируются локальные традиции, социальные установки и некоторые элементы этнической истории тканей.

Ключевые слова: ткань, занданачи, французский велюр, местный алабахмал, бекасам.

FABRICS MADE IN BUKHARA

Annotation. The article discusses the fabrics of the Bukhara oasis and their types. At the same time, the article analyzes local traditions, social attitudes and some elements of the ethnic history of fabrics-materials.

Keywords: cloth, zandanachi, french velor, local alabakhmal, bekasam.

Kirish: Kiyimlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bevosita shu liboslar yaralishi uchun asos bo'lgan matolarga ham yuzlanamiz. Har bir narsaning o'z ibtidosi bo'lgani kabi matolarning ham yaratilish tarixi mavjud bo'lib, u ibtidoiy tuzum davridanoq shakllanish bosqichlarini boshlagan. Qadimshunoslik (arxeologik) qazilmalari kiyim insoniyat taraqqiyotining eng qadim davrlarida (40-25 ming yil ilgari) paydo bo'lganini ko'rsatadi. Inson tanasining shakli va yashash tarzi dastlabki kiyimlarning ko'rinishini belgilagan. Dastlabki davrlar, ya'ni ibtidoiy tuzumda hayvon terisi yoki o'simlik novdalarini to'qish asosida muayyan bir shaklga keltirilishi oqibatida tayyorlangan mato inson tanasining ma'lum bir qismlarini berkitishga xizmat qilgan.

Insonlar tomonidan yaratilgan qadimiy hunarlardan biri to'qimachilikdir. Uning tarixi yangi tosh davridan boshlangan. Arxeologik qazishlar chog'ida insonlar yashagan ayrim manzilgohlardan qadimiy mato parchalari topilgan. Dastlab matolar qo'lda to'qilgan, keyinchalik to'qimachilik dastgohi kashf etilgach, ko'proq mato to'qiladigan bo'lgan. To'qimachilik haqida o'rta asrlarga oid ma'lumotlar keng tarqalgan. Arxeologik manbalardan tashqari tarixchilar va sayyohlar o'z asarlarida yozib qoldirganlar, shuningdek o'rta asrlarga oid turli xil xujjatlarda ko'plab ma'lumotlar saqlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Matolar tarixiga bag'ishlangan ilmiy ishlarni tahlil etarkanmiz, shuni aytish joizki, bir necha ming yillik tarix bilan yuzlashgan milliy matolarimiz to'g'risida qadimiy yozma merosimiz durdonalari, devoriy miniatyura bezaklaridan ko'pgina ma'lumotlarni o'rganishimiz mumkin. Jumladan, o'zbek xalqining eng kadimiy yozma merosi "Avesto" kitobida[1], o'rta asrlarda yashab ijod qilgan mashhur turkiy tilshunos Maxmud Koshg'ariy[2], ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy[3] va buyuk davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur[4] asarlarida xalqimizning qadimiy kiyimlari va mato turlari haqida kimmatli ma'lumotlar olamiz.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Buxoro qadim zamonlardan buyon hunarmandchilik ishlab chiqarish markazi bo'lib kelgan, u yerda hunarmandchilikning yuzdan ortiq tarmoqlari bo'lgan. Manbalarning guvohlik berishicha, X asrdayoq Buxoro O'rta Sharqning eng yirik to'qimachilik markazlaridan biriga aylanib ulgurgan. Keyingi yillarda O'zbekiston, Kavkaz, G'arbiy Yevropaning ayrim shaharlarida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Buxoro yaqinidagi Zandana qishlog'idagi to'qimachilik ustaxonasida tayyorlangan mato namunalari topildi. Bu matolar fanda "zandanachi" nomi bilan ma'lum. Buxorolik tarixchi Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra: "Xurosonning birorta shahrida bunchalik yaxshi gazlamalar

to'qiy olishmagan. Shunisi hayratlanarliki, Buxoro to'qimachilari, Xurosonga borishganda ana shu gazlamalarni o'zlari bilan olib borishgan. U yerda to'qimachilik ustaxonalari ochib, gazlama to'qishgan, biroq ko'rinishi va sifati jihatdan ular Buxoroda to'qilganlaridan orqada edi...". E'tiborli jihati bunday matolar Buyuk ipak yo'lining yirik shaharlari – Bag'dod, Xuroson, Misr, Suriya, Vizantiya kabi hududlariga savdo maqsadida ko'p miqdorda olib borilgan. Ammo keyingi o'tgan beqaror siyosiy vaziyatlar tufayli Buxoroda boshqa sohalar qatori hunarmandchilikning bu sohasiga jiddiy ziyon yetadi.

Keyingi davrlar haqidagi ma'lumotlarni yevropaliklarning Markaziy Osiyoga uyushtirgan ilk ekspeditsiyalaridan boshlab yig'ilgan materiallardan olishimiz mumkin. Masalan, XII asrda M'yg'ulistonga safar qilish asnosida mazkur mintaqada bo'lgan Marko Poloning[5] yozishmalarida Markaziy Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Keyinchalik Temuriylar davrida ham elchi Rui Gonzales de Klavixo Markaziy Osiyoning bir qator shaharlarida shoyi matolar ishlab chiqarilganligini qayd etadi. XV asr boshida Amir Temur saroyiga kelgan Klavixo Samarkandda ikki yil yashagan va mahalliy aholining o'sha davrdagi kiyimlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lgan. Biroq, u o'z estaliklarida ko'proq o'sha davrning aslzoda ayollari, ya'ni Temuriy malikalarning turli elchilar va chet ellik mehmonlarni kabul qilish marosimlarida kiygan kiyimlari to'g'risidagina ma'lumotlar berib o'tgan [6].

Xonliklar davriga kelib ham Buxoroda o'ziga xos ipakchilik maktablari faoliyat yuritgan. Shu davrlarda Buxoroga tashrif buyurgan chet ellik savdogarlar, elchilar va sayyohlar bejizga buxoroliklarni "Sharq pariyliliklari" deb nomlashmagan [7]. Ayollar liboslari uch qavatdan yetti qavatgacha bo'lib, eng avval paxtalik ichko'ylak, ustidan mahalliy shoyi yoki adras (hisori) yoki farangi matolaridan tayyorlangan ko'ylak "kurta", uning ustidan fransuz velluri, mahalliy olabaxmal, beqasam matolaridan tayyorlangan kaltacha – mursak kiyilgan. XVI asrda savdo aloqalari sababli Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan ingliz savdogari Antony Jenkinson[8] mahalliy mato turlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni yozgan. Majoriston (Vengriya)dan tashrif buyurgan Armeniy Vamberi [9] o'zining yozishmalarida Buxoroda tayyorlangan matolar to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirgan.

Har bir xudud to'qimachiligi o'z xususiyatlariga ega bo'lgan. To'qimachilik sertarmoq soha xisoblanib, u nimadan to'qishiga yoki nima to'qishiga qarab ixtisoslashgan. To'quv materiali sifatida asosan paxta, ipak va jundan foydalanganlar. Bulardan tashqari juda ko'p o'simliklardan (zig'ir, kanop) ip olingan. Ipakdan to'qilgan matolar yuqori baholangan va "Buyuk Ipak" yo'li orqali dunyoga tarqalgan. G.A.Agzamova[10] o'zining asarida XVIII asrning 70 yillarida Buxoroga tashrif buyurgan F.Yefremov shaharda turli xil gazlamalar, xususan ipakka oltin va kumushdan bezak berib tayyorlangan yo'l-yo'l parcha, shuningdek, atlas, baxmal, olacha va bo'z, matolari to'qilganligi haqida ma'lumot berganini qayd etgan. Bu matolar bir-biridan rangi, to'qilish uslubi va boshqa sifatlari bilan farq qilgan. Birgina bo'zning 8 xil rangli ko'rinishi mavjud bo'lgan Buxoroda "ikki xil rangli yo'l-yo'l va yupqa olacha deb ataluvchi ip gazlamalar" ko'p to'qilgan. Oddiy olachaning navi esa "Zibak" nomi bilan atalgan.

XIX asrning boshlarida Buxoroda faqat rastayi chitfurushi mavjud bo'lib, jami 284 do'kon [11] faoliyat yuritgan. 1916-yilga kelib 46 yirik ipak to'quv sanoat korxonalari ipak va yarim ipak matolarni ishlab chiqarishgan. XIX asrda o'zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar qatoriga ip gazlama, ipak nimshoyi va jun gazlamalar kirgan. Ip gazlamalarning turlari juda ko'p. Ayniqsa, och jigarrang, sariq tusli bo'zlar [12] keng tarkalgan bo'lib, ulardan barcha yoshdagi kishilar uchun choponlar, shuningdek, ichki kiyimlar, sallalar tikilgan.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab Buxoroda ipak to'quv (shoyibofi, adrasbofi, alachabofi) rivojlangan. Asosan adras va yarim ipak matolar ishlab chiqarilgan. Hunarmandchilik ipak matolarini ishlab chiqarish to'quv fabrikalari paydo bo'lguncha davom etgan. Buxoro muzeyida 440 dan ortiq gazlamalar ro'yxatga olingan bo'lib, ular ichida dastgohlarda to'qilgan namunalar, o'zbek va tojik ayollari tikishgan 600 dan ziyod kashtalar [13] mavjud. Muzey fondida saqlanib qolgan matolarning boy to'plami asosan 1924-1993-yillarda muzey xodimlarining ilmiy-yig'uv ishlari natijasida to'plangan. Metr shaklida, kiyim-kechak, etnografik va interyer buyumlari ko'rinishidagi matolarning namunalari iborat. Muzeylar matolari kolleksiyasining namunalari xronologik jihatdan uchta katta davrga bo'lish mumkin:

1. XIX va XX asr boshlari, dizayndagi o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega bo'lgan eng qiziqarli namunalar ushbu davrga tegishli. Namunalar mato va undan tayyorlangan kiyimlar bilan ifodalanadi: bolalar, erkaklar, ayollar; ichki buyumlar: joypo'sh choyshab, sandal-surma-dasturxon, so'zani paneli, ko'rpa, matraslar, pardalar, yostiqlik uchun takiyapo'sh.

2. XX asrning 1920-1960-yillari, bu davrda artellarda qo'lda ishlangan matolarning namunalari mavjud. Ushbu davrda matolarni ishlab chiqarish va bezash bo'yicha alohida markazlar o'z ahamiyatini yo'qotadi.

3. 1969-1980-yillarda fabrikalar, to'quv fabrikalari va firmalarining mahsulotlari ustun bo'lgan, bezaklarda Farg'ona vodiysi uslubi yetakchi o'rinni egallagan.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 15 yilliga bag'ishlab, nashr etilgan N.Sodiqovanning kitobida O'rta Osiyo jumladan, Buxoroda tayyorlangan, foydalanilgan va olib kelingan fabrika matolari haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan. Shundan kelib chiqib, Buxoroda to'quvchilikning asosan ikki turi: hammabop ip gazlama to'quvchiligi va nisbatan qimmatroq ipak to'quvchiligi ko'proq taraqqiy etgan deyishimiz mumkin. Ip gazlama matolarni to'qish bilan asosan, ayollar, ipak va nimshoyi gazlamalarni to'qish bilan esa erkaklar shug'ullanishgan.

Yurtimizning har bir shaharlari faqat ma'lum bir nav va ranglardagi gazlamani to'qishga ixtisoslashgan. Badiiy to'quvchilikning mahalliy maktablari ham mavjud bo'lgan. Ko'hna shaharning abrli gazlamalarida asosan to'q qizil, sariq va pushti ranglardan foydalanilgan.

Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy o'zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalar to'qilib, ulardan tikilgan turfa kiyimlar o'ziga to'qroq, boy-badavlat kishilar orasida rasm bo'lgan. Xalqning kiyim-kechaklarini tayyorlashda beqasam, banoras, parpasha, adras, atlas, shoyi va nimshoyi matolardan foydalanilgan. Birgina ipakning o'zidan esa yuqorida sanab o'tilgan matolardan tashqari tafta, zarboft, kimxob, baxmal, parcha singari matolar ham tayyorlangan.

Xulosa va takliflar: XIX asrning birinchi yarmida rus fabrika matolarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi natijasida Fabrikada ishlangan matolar kosiblar qo'lidan chiqqan matolarning bozorini kasod qildi. Bu hol o'lka xo'jaligining bozor ehtiyojlari uchun mol ishlab chiqarish sohasining umumiy taraqqiyoti jarayoni bilan, natural xo'jalikning inqiroziga sabab bo'ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi orasida ham asosan fabrikada tayyorlangan ip gazlamalar: chit, bo'z, kolenkor, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo'lgan. Boy-badavlat kishilar esa kimxob, ipak, atlas, duxoba, rango-rang movutlarni sotib ola boshlaganlar. Shunga qaramay, kosiblar dastgohidan chiqqan mahalliy gazlama: mato, bo'z, nimshoyi kabi gazmollar (adras, beqasam, podshoi, kimxob, xonatlas, katakshoyi kabilar)ning turli xillariga ehtiyoj katta bo'lgan.

Buxoro asrlar davomida ulkan Sharqning ilmu ma'rifat va dinu e'tiqod markazlaridan bir sifatida jahonga dong'i ketgan qadimiy shahardir. U o'tmishda savdo-sotiq, madaniy alokalar jixatidan Turonu Turkistonning mashhur Balx, Hirot, Marv (Mariy), Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi). Choch, Shosh (Toshkent) va Xorazm (Xiva) shaxarlari katoridan joy olgan. O'rta asrlarda Buxoro Movarounnahrning yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va ma'muriy markazlaridan biri bulgan. Uning milliy madaniy urf-odatlar, asrlar davomida shakllangan asosiy elementlari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish asosiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqar Mahkam tarjimai "Avesto" Tarixiy-adabiy yodgorlik T.:Sharq, 2001 B-18
2. Махмуд Кошғарий "Девону луғотит турк" Т.:Фан 1962 Б-53
3. Абу Райҳон Беруний "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар" Т.: Фан, 1968 Б-26
4. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома Т.: Юлдузча, 1989
5. Книга Марко Поло - М. Географгиз, 1955. -С 75
6. Руи Гонсалис Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.) Перевод, предисловие и комментарии И.С. Мироковой. М.: Наука. 1990. С-293
7. Султонова Н., Жўраев Ш. Бухоро миллий кийимлари ва матоларидаги ўзига хослик// XXI асрда илм-фан таракқиётининг ривожланиш истикболлари ва уларда инновацияларнинг тутган ўрни" мавзусидаги 10-Республика илмий-online конференцияси. -Б-31
8. Дженкинсон А. Путешествия в Среднюю Азию 1558-1560 гг.//Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке Л.:ОГИЗ 1932. С-193
9. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (Из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву. Бухару и Самарканд - М., 1867.С-145
- 10.Агзамова Г.А.Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо Т.:Ўзбекистон.2000 й
- 11.Нуруллаева А. Бухарские шелковые ткани//Из истории культурного наследия Бухары. Бухара 2001г №7 Б-127
- 12.Раҳматуллаева Д., Ходжаева У., Атаханова Ф. Либос тарихи. Тошкент, 2015.Б-246
- 13.Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари XIX-XX асрлар Т.:Шарқ 2003й Б-20